

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 201 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQRUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhaxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	



O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Xuramov Zafar Rajabaliyevich

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlarlararo
soliq inspeksiyasi O'ta yirik soliq to'lovchilar
Soliq nazorati bo'limi Moliyaviy xizmatlar
komplekslarining soliq nazorati sho'bası boshlig'i

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda qulay investitsiya muhitini shakllantirishning dolzarb muammolari, investitsiya muhitini belgilovchi asosiy omillar, investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda mamlakat riski darajasini pasaytirish masalalari muhokama qilingan, xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, ishbilarmonlik muhiti, barqarorlik, shaffoflik, investitsiyalarni sug'urtalash, inflyatsiya, investitsiya riski, fors-majior.

Abstract: The article discusses the current problems of creating a favorable investment climate in Uzbekistan, the main factors determining the investment climate, issues of reducing the country's risks while increasing the attractiveness of the investment environment, and provides conclusions and recommendations.

Key words: investment, business environment, stability, transparency, investment insurance, inflation, investment risk, force majeure.

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные проблемы формирования благоприятного инвестиционного климата в Узбекистане, основные факторы определяющие инвестиционный климат, вопросы снижения уровня рисков страны при повышении привлекательности инвестиционной среды, дано выводы и рекомендации.

Ключевые слова: инвестиции, бизнес-среда, стабильность, прозрачность, страхование инвестиций, инфляция, инвестиционный риск, форс-мажорные обстоятельства.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotida ichki moliyaviy resurslarning yetishmasligi va tashqi moliyalashtirish manbalarini jalb qilish zarurati mavjudligi nuqtayi-nazaridan qulay investitsiya muhitini yaratish muammosi dolzarb bo'lib bormoqda. O'zbekistonda investitsiya muhitini shakllantirishning maqbul modelini yaratish alohida ahamiyat kasb etib, to'g'ridan to'g'ri va portfel investitsiyalar, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish muammolarini hal qilishning mohiyati va usullari milliy ishlab chiqarish hajmining o'sishini belgilaydi. O'zbekiston iqtisodiyotining zamonaviy jahon iqtisodiyotiga yanada faol integratsiyalashuviga zamin yaratadi.

So'nggi yillarda investitsiyalarni jalb qilish muammosi hukumatning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda, bu juda ko'p qirrali masalaning turli tomonlari mahalliy va xorijiy olimlar va mutaxassislar tomonidan olib borilgan keng ko'lamli tadqiqotlarda o'z aksini topdi, asosan bunday tadqiqotlar sanoat darajasida o'tkazildi va o'tkazilmoqda. Investitsiyalar yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun ham, umuman mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun ham muhimdir. Iqtisodiy o'sish turli omillar bilan belgilanadi, ulardan eng muhimi investitsiyalarning o'sishi va ularning samaradorligini oshirishdir. Iqtisodiy rivojlanishda real investitsiyalar alohida rol o'ynaydi, chunki ularsiz xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy ishlab chiqarish aktivlarini yangilash va kengaytirish mumkin emas. Zamonaviy sharoitda investitsiyalar hajmi texnologik o'sishni ta'minlaydi, ishlab chiqarish sifati va miqdorini yaxshilaydi. Bu nafaqat investitsiyalarni jalb qilish, balki ulardan to'g'ri foydalanish uchun ham muhimdir, buning natijasida iqtisodiy samaradorlik oshadi. Investitsion faollik darajasi va investitsiya faoliyati doirasi tadbirkorlik subyektlarining uzoq muddatli faoliyatiga, ularning rivojlanishi va raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qulay investitsiya muhitini shakllantirish ichki va tashqi investorlarning investitsion imkoniyatlarini oshirishga, ularning strategik va operatsion investitsiya qarorlarini qabul qilishiga sharoit yaratadi.



Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "avvalo, biz ilgari investorlarning O'zbekiston bozoriga kirishiga va ularning erkin faoliyatiga to'sqinlik qilgan barcha omillarni bartaraf etib, tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga kirishdik"¹.

Bundan tashqari, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston-2030" strategiyasida "iqtisodiyotdagi o'zgarishlar va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash, shuningdek, muvozanatli pul-kredit siyosatini amalga oshirish har yili asosiy vositalarga investitsiya qilinadigan kapital investitsiyalarning o'rtacha 7 foizga o'sishini ta'minlash kabi maqsadlar qo'yildi².

Ushbu mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratishning samarali mexanizmini ishlab chiqish mintaqada jamg'armalarni investitsiya resurslariga aylantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga, shuningdek tashqi investitsiya manbalarini jalb qilishga olib keladi. Shu bilan birga, mamlakatga iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari va tarmoqlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining oshishida ijobiy samaraga erishiladi, bu esa o'z navbatida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishishga yordam beradi. Mamlakatning investitsiya muhitini obyektiv baholash investorlarning investitsiya faoliyatini amalga oshirishda duch keladigan muammolarni chuqur o'rganishni talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon iqtisodchi olimlaridan J. D. Daniyels, Li X. Radeba, M. Mur, X. Shmits, S. Yu. Sivakova, N. A. Dubovik, A. A. Burkov va boshqa ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida investitsiya muammolarini o'rganish va investitsiya muhitini yaxshilashga salmoqli hissa qo'shdilar³.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari investitsiya jarayoni va investitsiya muhitini baholashning nazariy va amaliy jihatlarida ilmiy tadqiqotlar olib borgan mahalliy olimlardan D.G'. G'ozibekov, N. G'. Karimov, E. I. Nosirov, S. Mustafoqulov, A. Sobirov, L. Zairov, S. Asamxodjayeva, B. Mamatov⁴ va boshqalarni keltirish mumkin.

Iqtisodiyot va amaliyotda "investitsiya muhiti" atamasi investitsiyalardan samarali foydalanishga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Xorijiy adabiyotlarda ko'pchilik ekspertlar investitsiya muhitini "ishbilarmonlik muhiti" tushunchasi bilan aniqlaydilar. Rivojlanishni o'rganish institutidan M. Mur va X. Shmits (IDS, University of Sussex) ushbu ikki tushuncha o'rtasidagi farqni o'rganishdi⁵. Ularning fikricha, ishbilarmonlik muhitini (yoki biznes muhiti) yaxshilash biznes yuritish xarajatlarini kamaytirishni, investitsiya muhitini yaxshilash esa kapital qo'yish xavfini kamaytirishni anglatadi.

Aksariyat rus olimlarining fikriga ko'ra, investitsiya muhiti kapital qo'yilmalarning rentabelligi va xavfliligiga ta'sir qiluvchi omillar to'plamidir. Masalan, S. Yu. Sivakova nuqtayi nazarida, "investitsiya muhiti-bu kapital qo'yilmalar muhitining holati va potensialini, shuningdek ma'lum bir siyosiy, tartibga solish va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ma'lum bir hududda biznes yuritish xavfini tavsiflovchi munosabatlar majmuidir" – deb ta'riflaydi. Bizning fikrimizcha investitsiya muhiti bu ichki va tashqi investorlar tomonidan samarali investitsiya faoliyatini olib borish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlar majmuidir.

1 Речь Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на первом Ташкентском международном инвестфоруме 24 марта 2022 года. <https://www.gazeta.uz/ru/2022/03/24/invest-climate/>

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11 сентябр 2023 йилдаги ПФ-158 "Ўзбекистон-2030" стратегияси тўғрисидаги Фармони. (<https://lex.uz/ru/docs/6600404>)

3 Дэниэлс Дж.Д., Радеба Л.Х. Международный бизнес: внешняя среда и деловые операции.4-е.изд. - М.: Дело ЛТД, 2014. - с. 438., Moore M., Schmitz H. Idealism, realism and the investment climate in developing countries- Sussex: Institute of Development Studies, 2016 - P.22., Сивакова С.Ю. Формирование инвестиционного климата с целью привлечения иностранных инвестиций (На примере Смоленской области) [Текст]: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 - Санкт-Петербург, 2014 - с. 22., Дубовик Н.А. Международный опыт формирования инвестиционного климата и его значение для России (на примере субъектов ЮФО) [Текст]: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 - Санкт-Петербург, 2017 - с. 17., Бурков, А.А. Госрегулирование инвестиций в условиях глобализации [Текст]: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук: 08.00.01 - Москва, 2012 - с. 8.

4 G'ozibekov.D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T. "Moliya". 2003.-B. 45., Каримов Н. Вопросы внедрения рыночных механизмов в финансирование инвестиционной деятельности в условиях экономической интеграции. – Т.: Наука и технология, 2007. – 240 с; Насиров Э., Асамходжаева Ш. Финансирование инвестиционных проектов. Учебное пособие. – Т.: Иқтисод-молия, 2020 год, Мустафақулов Ш. – Совершенствование научно-методических основ повышения привлекательности инвестиционной среды в Узбекистане: Автореф. дисс. докт. экон. наук (DSc). – Т.: БФА РУз, 2017 г. Мустафақулов Ш. – Совершенствование научно-методических основ повышения привлекательности инвестиционной среды в Узбекистане: Автореф. дисс. докт. экон. наук (DSc). – Т.: БФА РУз, 2017 г.; Сабилов О. Ш. Повышение инвестиционной привлекательности и создание благоприятного инвестиционного климата."Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy yelectron jurnali. 5-son, sentyabr-oktyabr, 2020-yil.; Зайиров Л., Асамходжаева Ш., Юнусова С. Инвестиции. Учебное пособие. – Т.: Иқтисод-молия, 2019. – 652 с; Маматов Б.С. Инвестиция лойиҳалари таҳлили: Олий ўқув муассасалари учун ўқув қўлланма - Т.: - «Шарқ», 2003. - 225 б.

5 Moore M., Schmitz H. Idealism, realism and the investment climate in developing countries- Sussex: Institute of Development Studies, 2016 - P.22.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'pgina olimlar, iqtisodchi va amaliyotchilar iqtisodiyotning real yoki moliyaviy sektoriga jalb qilinadigan investitsiyalar bo'yicha investitsiya muhitining nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullanganlar. Investitsiya muhiti - deganda davlatning xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorligini belgilovchi huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlar majmui tushuniladi. Ularning har biri mamlakatning investitsiya muhitini tavsiflashda muhim rol o'ynaydi. Investitsiya muhiti juda murakkab ko'p o'lchovli tushunchadir. Investitsion muhitning turli tarkibiy qismlarini baholash investitsiya xavfi darajasini, investitsiyalarni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlashga imkon beradi. Mintaqaviy rivojlanish tendensiyalari investitsiya sohasidagi an'anaviy tartiblar va investorlarning imtiyozlarida keskin o'zgarishlarga olib keldi. Jahon moliyaviy inqirozi investorlarni xavflarni baholash nuqtayi nazaridan ham, mintaqalar salohiyati nuqtayi nazaridan ham o'z ustuvorliklarini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. Bugungi kunda investitsiyalar uchun kurashda g'alaba qozonish imkoniyati ko'proq "ijtimoiy" xavfi past bo'lgan (jinoiy, boshqaruv va ijtimoiy xavflar) hududlarga to'g'ri kelayotgan bo'lsada, investitsiya imtiyozlarining asosiy omillaridan biri bo'lgan investitsiya salohiyatidan ko'ra infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi ko'rsatkichi abadiy qadriyat bo'lib qolmoqda. Biz quyida milliy iqtisodiyotda qulay investitsiya muhitini shakllantirish va uning jozibadorligini yanada oshirish yo'lidagi asosiy muammolarga to'xtalamiz. Birinchi navbatda investitsiya muhitini belgilab beruvchi asosiy omillarni to'g'ri aniqlash va tahlil qilish lozim (1-jadval).

1-jadval. Investitsiya muhitini belgilab beruvchi omillar⁶

Huquqiy omillar	Barqarorlik
	Shaffoflik
	Prognoz (Bashorat) qilish
Makroiqtisodiy omillar	Bozor hajmi
	Siyosiy risklar darajasi
	Milliy valyuta kursi o'sishi
	Kafolat tizimi
Geografik omillar	Tabiiy
	Iqlim sharoiti
Tadbirkorlik omillari	Xarajatlar darajasi
	Soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari
	Moliyaviy imtiyozlar tizimi
	Infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi

Investitsiya muhitini belgilovchi omillarning birinchi guruhiga huquqiy omillar kiradi, jumladan, bozorga kirish va xorijiy investitsiyalar uchun siyosiy-iqtisodiy barqarorlik, ma'lumotlar ochiqligi, shaffoflik va kelgusida bozorni bashorat qila olish imkoniyatlari, milliy yoki eng maqbul davlat rejimining o'ziga xos xususiyatlari va xorijiy investorlarga taqdim qilinadigan davlat kafolatlari shakllarini (shu jumladan, mulkni milliyalashtirishdan himoya) misol keltirish mumkin. Bu omillar retsepiyent mamlakat investitsiya muhitini baholash uchun dastlabki mezon sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchi guruh - eng muhim rol o'ynaydigan makroiqtisodiy omillar. Bularga quyidagilar kiradi: umuman YAIM hajmi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ushbu ko'rsatkich hajmi bilan belgilanadigan qabul qiluvchi mamlakat bozorining imkoniyatlari; siyosiy tizimning siyosiy barqarorligi va demokratik xususiyatiga bog'liq bo'lgan mamlakatning siyosiy xavf darajasi. Ushbu ko'rsatkichlarning birinchisi hukumat va iqtisodiyotning davlat talablari nuqtayi nazaridan barqarorligi bilan belgilanadi. Ikkinchi ko'rsatkich fuqarolik erkinliklari va insonning asosiy huquqlari kafolatlari nuqtayi nazaridan mamlakatning demokratik rivojlanish darajasi bilan belgilanadi;

6 Муаллиф ишланмасы.



milliy valyuta kursining dinamikasi: valyuta kursining o'sishi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantiradi, valyuta kursining pasayishi, aksincha, ularning pasayishiga olib keladi; xorijiy investitsiyalarni turli risklardan himoya qilish tizimining (davlat kafolati, investitsiyalarni sug'urtalash) rivojlanganligi va boshqalar.

Mamlakatning investitsiya muhitini belgilovchi omillarning uchinchi guruhi geografik va iqlim omillari bo'lib, ular qazib olish sanoati va qishloq xo'jaligiga sarmoya kiritishda ayniqsa muhimdir.

To'rtinchi guruh omillari - bu mamlakatning ishbilarmonlik muhiti. Ishbilarmonlik muhitining xarajatlar darajasi, soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari va soliq stavkalari miqdori, moliyaviy imtiyozlar tizimi, ishchi kuchining narxi va malaka darajasi, infratuzilmani rivojlantirish darajasi, ijara va kommunal xizmatlar miqdori, ma'muriy protseduralar, xodimlarni tanlashda mahalliy hokimiyat organlarining yordami kabilar xorijiy investorlar faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega.

Qulay investitsiya muhitini shakllantirishdagi ikkinchi muhim muammolardan biri bu mavjud investitsiya muhitini to'g'ri baholashdir.

Investitsion muhitni baholashda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- iqtisodiy sharoitlar (makroiqtisodiy muhitning holati, YAIM dinamikasi, milliy daromad, sanoat ishlab chiqarishi, inflyatsiya, yuqori texnologiyali tarmoqlarning rivojlanishi, mehnat bozoridagi vaziyat, pul, moliyaviy, byudjet, soliq, valyuta tizimlari va boshqalar.);

- davlat investitsiya siyosati (chet el investitsiyalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasi, chet el mulkini milliyashtirish imkoniyati, xalqaro shartnomalarda ishtirok etish, shartnomalarga rioya qilish, siyosiy hokimiyatning uzluksizligi, davlat institutlarining barqarorligi va ularning faoliyati samaradorligi va boshqalar.);

- investitsiya faoliyati uchun normativ-huquqiy baza (normativ hujjatlarning holati va ularni tuzatish tartibi, mamlakatga investitsiyalarni kiritish va olib chiqish parametrlari, soliq, valyuta va bojxona rejimi, kompaniyalarni tashkil etish, ro'yxatdan o'tkazish, faoliyat ko'rsatish, hisobot berish, birlashtirish va tugatish tartibi, bahsli vaziyatlarni boshqarish;

- investitsion muhitni belgilovchi turli omillarning holati to'g'risida axborot, aniq ma'lumot va statistik materiallar.

Investitsion muhitning turli tarkibiy qismlarini baholash investitsiya xavfi darajasini, vaqtincha mavjud bo'lgan kapitalni investitsiyalashning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlashga imkon beradi. Investitsion muhitni baholash usullari juda xilma-xildir, ichki tarkib milliy iqtisodiy tizimning o'ziga xos xususiyatlariga va iqtisodiyotni strategik rivojlantirish maqsadlariga bog'liq.

Qulay investitsiya muhitini shakllantirishning uchinchi muammolaridan biri bu investitsiya qabul qiluvchi davlatning mamlakat riski darajasini pasaytirishdir.

Jahon amaliyotida umume'tirof etilgan «investitsion risk» atamasi kapital qo'yilmalarning to'liq yoki qisman yo'qotilishi yoki haq to'lanmasligi bilan bog'liq risk tushunchasini aniqlash uchun qo'llaniladi. Risklar, odatda, uch darajaga bo'linadi va yuqori darajadagilar quyi darajalarni o'z ichiga oladi. Mamlakat riski eng umumiy tushuncha bo'lib, u xalqaro munosabatlarning to'la ishtirokchisi bo'lgan mamlakat hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan barcha risklarni birlashtiradi, tijorat va notijorat risklarni o'z ichiga oladi, shuningdek, fors-major holatlari ham kiradi (2-jadval).

2-jadval. MDH davlatlari makroiqtisodiy va mamlakat riski ko'rsatkichlari (2023-yil)

Кўрсаткичлар/ мамлакатлар	YAIM ўсиши (%)	Ўртача йиллик инфляция (%)	Давлат қарзи (YAIMга нисбатан (%))	Асосий капиталга инвестици ялар (YAIMга нисбатан (%))	Мамлакат риски даражаси	Ишбилармон лик муҳити даражаси
Россия Федерацияси	3,6	7,5	16,2	12,1	Д - жуда юқори	В - барқарор
Қозоғистон	5,1	10,8	40,5	15,1	В - барқарор	В - барқарор
Белорусь	3,9	5,1	31,7	11,5	Д - жуда юқори	В - барқарор
Озарбайжон	1,1	8,8	21,8	16,4	В - барқарор	С - юқори
Ўзбекистон	6,0	8,7	34,3	33,3	В - барқарор	В - барқарор
Қирғизистон	6,2	7,3	47,6	13,6	С - юқори	Д - жуда юқори
Тожикистон	8,3	6,0	33,3	10,7	Д - жуда юқори	Д - жуда юқори
Туркменистон	6,3	5,9	5,5	-	Д - жуда юқори	Е - критик



2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, MDHga a'zo va rivojlanayotgan davlatlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, mamlakat riski darajasi va ishbilarmonlik muhiti darajasi rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichidan ancha yuqori ekanligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, yalpi ichki mahsulotning o'sishi ko'rsatkichi 2023-yilda eng yuqori Tojikistonda 8,3%ni, eng past Ozarbayjonda 1,1%ni tashkil etgan. O'rtacha yillik inflyatsiya ko'rsatkichlari eng yuqori Qozog'istonda 10,8%ni, eng past Belorussiyada 5,1%ni tashkil etgan. Davlat qarzining YAIMga nisbatining oshib borayotganligi, xalqaro zaxiralarning sezilarli darajada kamayishi yoki tashqi majburiyatlarning tez ortishi, davlatning iqtisodiyotga aralashuv darajasining yuqoriligi, xususiy mulk daxlsizligi va korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarining samarasining pastligi ushbu mamlakatlarda mamlakat riskining yuqoriligini va ishbilarmonlik muhiti darajasini yaxshi emasligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy dunyoda investitsiya muhiti xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omiliga aylanmoqda. Ushbu jarayon biznes va tadbirkorlarga o'zlarining biznes g'oyalari va rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini beradi.

O'zbekistonda investitsiya muhitini sezilarli darajada yaxshilash uchun, xorijiy investorlarning fikrlarini inobatga olgan holda, quyidagi sohalarida tartibga solish ishlarini amalga oshirish muhimdir: byurokratik protseduralarni qisqartirish orqali ma'muriy yukni (masalan, ro'yxatdan o'tishdan tortib, to mahsulotni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishgacha hujjatlar sonini) kamaytirish bo'yicha harakatlarni kuchaytirish zarur; huquqiy tizimning tanlovlilik xususiyatini bartaraf qilish va bozorning barcha ishtirokchilari uchun oldindan aniq bo'lgan o'yin qoidalarini yaratish orqali qonunchilikning shaffofligi va samaradorligini oshirish choralari ko'rish. Sun'iy to'siqlarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan bir xil qonun ustuvorligini turli xil talqin qilishga imkon beradigan huquqiy xarakterdagi to'siqlar va noaniqliklarni bartaraf yetish kerak. Investitsiya jarayonining shaffofligini oshirish uchun investorlarga qo'yiladigan yashirin talablarni bartaraf etish zarur; xalqaro tajribaga ega yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qiladigan, ish uchun zarur texnologiyalar va bilimlardan foydalanishga imkon beradigan migratsiya qonunchiligini yanada erkinlashtirish kerak, bu o'z navbatida Respublikada loyihalarni amalga oshirishni soddalashtiradi; xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyati ustidan davlat nazorati darajasini pasaytirish: eskirgan sanoat xavfsizligi standartlaridan voz kechish, xom ashyo va mahsulotlarga ortiqcha talablarni kamaytirish, xom ashyo va mahsulotlarga nisbatan ichki va xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabridagi PF-158-son «O'ZBEKISTON — 2030» strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.
2. Речь Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на первом Ташкентском международном инвестфоруме 24 марта 2022 года. <https://www.gazeta.uz/ru/2022/03/24/invest-climate/>
3. Moore M., Schmitz H. Idealism, realism and the investment climate in developing countries- Sussex: Institute of Development Studies, 2016 - P.22.
4. Сивакова С.Ю. Формирование инвестиционного климата с целью привлечения иностранных инвестиций (На примере Смоленской области) [Текст]: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 - Санкт-Петербург, 2014 - с. 22.
5. Дэниэлс Дж.Д., Радеба Л.Х. Международный бизнес: внешняя среда и деловые операции. 4-е изд. - М.: Дело ЛТД, 2014. - с. 438.
6. Инвестиции : учебник / [Л.И. Юзвович и др.] ; под ред. Л.И. Юзвович ; М-во науки и высш. образования Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — 2-е изд., испр. и доп. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2018. — 610 с. — (Учебник УрФУ).
7. Сабинов О. Ш. Повышение инвестиционной привлекательности и создание благоприятного инвестиционного климата. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy yelectron jurnali. 5-son, sentyabr-oktyabr, 2020-yil,;
8. Зайиров Л., Асамходжаева Ш., Юнусова С. Инвестиции. Учебное пособие. — Т.: Иқтисод-молия, 2019. — 652 с;
9. https://www.coface.com/news-economy-and-insights/business-risk-dashboard/comparative-table-of-country-assessments?id_select_one=48448&id_select_two=b&id_select_three=b.
10. <https://daryo.uz/ru/2024/08/08/samy-vysokiy-uroven-gosdolga-v-tsentrnoy-azii-zafiksirovan-v-kazakhstan-samy-nizkiy-v-tadzhikistane>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
